

UO‘T:634.22

**OLXO‘RI MEVASINING PISHIB YETILISHIDA, QULAY HAVO  
HARORATIDA DARAXTINING FAOL VEGETATSIYA DAVRINING  
ISSIQLIK BILAN TA‘MINLANGANLIK TA‘SIRI**

*Islamov Sohob Yaxshibekovich*

*Toshkent davlat agrar universiteti professori*

*Sultonov Xumoyun Mahmudjon o‘g‘li*

*O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti*

*Andijon filiali q.x.f.f.d (PhD)*

*xumoyunsu@gamil.com*

**Annotatsiya.** Maqolada Olxo‘ri navlariga turli usullarda shakl berishda, mevasining pishib yetilishida, qulay havo harorati ta‘sir ko‘rsatadigan bo‘lib, olxo‘ri daraxtining faol vegetatsiya davrining issiqlik bilan ta‘minlanganlik ko‘rsatkichi hisoblanib bunda, olxo‘rining Berton Leto Chernosliv Samarqandskiy navlariga Kosasimon Avstriya butasi Siyrak yarusli hamda Kim grin butasi (KGB) usullarida shakl berilganda qiyosiy nahlil qilingan.

**Аннотация.** В статье сорта сливы имеют различную форму, на созревание плодов влияет благоприятная температура воздуха, а учитывая теплообеспеченность периода активной вегетации сливы Бертон Лето сливы Чернослив сорта Самаркандский Чашевидный австрийский куст Малослойный и методы Грин Буша Кима (КГБ) по сравнению с кустами сливы. проводится сравнительный анализ.

**Kalit so‘zlar:** navlari, shakl berish usullari, havo harorati, issiqlik bilan ta‘minlanganlik.

**Ключевые слова:** виды, способы формирования, температура воздуха, теплоснабжение.

Respublikada bog‘dorchilik va uzumchilik tez shiddatlar bilan rivojlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Maxkamasi tomonidan mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlash, iste‘molchilar talabini qodirish respublikamizda yetishtirilayotgan meva, rezavor mevalar va uzum mahsulotlari hisobiga to‘la qondirish hamda ma‘lum miqdorini eksport qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratilib kelmoqda.

Jahonda olxo‘ri mevalarini yetishtirish hajmi 13 mln. tonna bo‘lib, 90 ga yaqin mamlakatlarda yetishtirilishi bilan danakmevalilar ichida eng yirik ishlab chiqarilayotgan mevalardan biri hisoblanadi. Olxo‘ri yetishtirish bo‘yicha jahonda Xitoy Xalq Respublikasi yetakchilik qilib, yiliga 7 mln tonna hosil oladi. Keyingi o‘rinlarda Ruminiya davlati 807 ming tonna, Chili davlati 427 ming tonna hosil oladi,

O'zbekiston Respublikasida esa yiliga 143 ming tonna olxo'ri yetishtirilishi bilan dunyo bo'yicha 13 o'rinni egallaydi.

Olxo'ri bog'larni tashkil qilishda, daraxtlar qalin qilib ekilishi natijasida va ularni parvarishlashda yo'l qo'yilgan xatoliklar, jumladan noto'g'ri shakl berish oqibatda mevasining miqdoriga va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin

Mahalliy va chetdan keltirilgan olxo'ri navlarida shakl berish usullarini o'rganish bo'yicha akademik Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida barpo qilingan intensiv olxo'ri bog'larida olib borilgan bo'lib 5 ta shakl berish usuli va 3 ta mahalliy va introduksiya qilingan navlardan foydalanilgan.

Olxo'ri bog'lariga shakl berishda meva berishini yildan-yilga tartibga solish, o'simlik hosildorligini oshiri, shakl berish va kesish orqali gektariga ko'proq daraxt joylashtirishga ham imkoni beradi, shakl berishning, mevalarni terishda mehnat unumdorligini oshirish mumkin. Meva bog'lariga, shakl berish, kesish usullarini, yarusli, yarussiz, uzun, o'rta, kalta, qisqartirish hamda siyraklashtirish, shakl berish va kesish ekin turi hamda naviga qarab, shakl berish. Meva bog'lariga shakl berish bilan meva hosilga kirish muddatlarini o'zgartirib, hamda xosil davrini uzaytirish, bog'larni parvarish qilish. Shakl berilganda juda serbarg bo'lib hosil shoxlari ko'p bo'ladi. Bu shakllar daraxtlarni zichlashtirish va yuqori meva hosili olishga imkon beradi. Meva bog'larini tizimli kesish orqali hosilni uch barovarga oshirish imkoniyatini beradi.

Olxo'ri navlariga turli usullarda shakl berishda, mevasining pishib yetilishida, qulay havo harorati ta'sir ko'rsatadigan bo'lib, olxo'ri daraxtining faol vegetatsiya davrining issiqlik bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Tajriba natijalariga ko'ra, olxo'ri navlarining rivojlanishi uchun yillik, issiqlik harorat resurslarining qulaylik darajasini baholashda vegetatsiya davridagi 10 °C dan yuqori bo'lgan faol harorat yig'indisi qo'llaniladi. Faol harorat yig'indisi 10 °C dan yuqori bo'lgan barqaror o'rtacha sutkalik haroratlarni qo'shish yo'li bilan topiladi. Faol harorat yetarli bo'lmagan hollarda vegetatsiya davrida meva hosili pishmay qoladi. Olxo'ri navlariga turli usullarda shakl berilganda, issiqlik bilan ta'minlanganlik darajasini hisoblashda faol harorat ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Olxo'rining Berton, Leto, Chernosliv Samarkadskiy navlarida shakl berilmagan nazorat variantlarda vegetatsiya boshlanishidan to gullashni boshlanishigacha bo'lgan davr davomiyligi 17-32-21, kunlarni tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 31,5-14,6-42,7 °C oralig'ida bo'lgan bo'lsa, gullashni boshlanishidan to pishish boshlanishigacha bo'lgan davr davomiyligi 135-82-136 kunning tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 1971-851,1-2027,9 °C oralig'ida bo'lganligi aniqlanib.

Pishish boshlanishidan to barglar to'kilishi tugashigacha bo'lgan davr davomiyligi 104-140-103 kunning tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 762,6-1905,1-694,5°C bo'lganligi aniqlanib. Vegetatsiya davomiyligi 256-254-260-

kungacha, jami foydali harorat yig'indisi esa 2765-2770,8-2765,1 °C oralig'ida tashkil etdi.

Kosasimon usulda shakl berilganda, Berton, Leto, Chernosliv Samarkadskiy navlarida vegetatsiya boshlanishidan to gullashni boshlanishigacha bo'lgan davr davomiyligi 16-25-16 kunni tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 29-11,2-36,4 °C oralig'ida bo'lgan bo'lsa, gullashni boshlanishidan to pishish boshlanishigacha bo'lgan davr davomiyligi 134-83-135 kunni tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 1953,9-817-1997,3 °C oralig'ida bo'lganligi aniqlanib. Pishish boshlanishidan to barglar to'kilishi tugashigacha bo'lgan davr davomiyligi 107-142-107 kunni tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 779,7-1942,7-729 °C bo'lganligi aniqlanib. Vegetatsiya davomiyligi 257-249-258 kungacha, jami foydali harorat yig'indisi esa 2763-2770,9-2762,7 °C gachani tashkil etganligi aniqlandi.

1-jadval

Olxo'ri navlariga shakl berishning fenologik fazalarining o'tishida foydali harorat yig'indisi (o'rtacha 2021-2023 yy).

Shakl berish usullari	Vegetatsiya boshlanishi	Gullash boshlanishi	Vegetatsiya boshlanishidan gullashgacha		Pishish boshlanishi	Gullash boshlanishidan pishishgacha		Barglarni to'kilishning tugashi	Pishish boshlanishidan barglar to'kilishi tugashigacha		Vegetatsiya davomiyligi, kun	Foydali harorat yig'indisi, °C
			davomiyligi, kun	foydaali harorat yig'indisi, 10°C dan yuqori		davomiyligi, kun	foydaali harorat yig'indisi, 10°C dan yuqori		davomiyligi, kun	foydaali harorat yig'indisi, 10°C dan yuqori		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
<b>Olxo'ring Berton navi</b>												
Shakl berilmagan-nazorat	13/III	30/III	17	31,5	12/VIII	135	1971	24/XI	104	762,6	256	2765
Kosasimon	15/III	30/III	16	29	11/VIII	134	1953,9	26/XI	107	779,7	257	2763
Avstraliya butasi	15/III	31/III	17	32,3	10/VIII	132	1933,3	29/XI	111	797	260	2762,6
Siyrak yarusli	14/III	29/III	16	27,3	11/VIII	135	1956,2	26/XI	107	779,7	258	2763,2
Kim Grin butasi	16/III	29/III	14	26,6	09/VIII	133	1921,8	27/XI	110	814,2	257	2762,6
<b>Olxo'ring Leto navi</b>												
Shakl berilmagan-nazorat	18/II	21/III	32	14,6	11/VI	82	851,1	29/X	140	1905,1	254	2770,8
Kosasimon	23/II	19/III	25	11,2	09/VI	83	817	29/X	142	1942,7	249	2770,9
Avstraliya butasi	22/II	19/III	26	11,2	09/VI	84	828,1	29/X	142	1942,7	250	2782
Siyrak yarusli	21/II	20/III	28	12,7	10/VI	83	835,1	29/X	141	1924,6	251	2770,9
Kim Grin butasi	23/II	20/III	26	12,7	08/VI	85	799,5	02/XI	147	1960,9	254	2771,6
<b>Olxo'ring Chernosliv Samarkandskiy navi</b>												
Shakl berilmagan-nazorat	13/III	02/IV	21	42,7	16/VIII	136	2027,9	27/XI	103	694,5	260	2765,1
Kosasimon	17/III	01/IV	16	36,4	14/VIII	135	1997,3	29/XI	107	729	258	2762,7
Avstraliya butasi	15/III	01/IV	18	36,4	16/VIII	137	2031,7	29/XI	105	694,5	260	2762,6
Siyrak yarusli	15/III	31/III	17	32,3	17/VIII	139	2051,7	28/XI	103	687,6	259	2771,6
Kim Grin butasi	16/III	01/IV	17	36,4	12/VIII	135	1971	29/XI	109	762,6	259	2762,6

Avstraliya butasi usulda shakl berilganda, Berton, Leto, Chernosliv Samarkadskiy navlarida vegetatsiya boshlanishidan to gullashni boshlanishigacha bo'lgan davr davomiyligi 17-26-18 kunni tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 32,3-11,2-36,4 °C oralig'ida bo'lgan bo'lsa, gullashni boshlanishidan to pishish boshlanishigacha bo'lgan davr davomiyligi 132-84-137 kunni tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 1933,3-828,1-2031,7 °C oralig'ida bo'lganligi aniqlanib. Pishish

boshlanishidan to barglar to'kilishi tugashigacha bo'lgan davr davomiyligi 111-142-105 kunning tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 797-1942,7-694,5 °C bo'lganligi aniqlanib. Vegetatsiya davomiyligi 260-250-260 kungacha, jami foydali harorat yig'indisi esa 2762,6-2782-2762,6 °C gachani tashkil etganligi aniqlandi.

Siyrak yarusli usulda shakl berilganda, Berton, Leto, Chernosliv Samarkadskiy navlarida vegetatsiya boshlanishidan to gullashni boshlanishigacha bo'lgan davr davomiyligi 16-28-17 kunning tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 27,3-11,2-32,3 °C oralig'ida bo'lgan bo'lsa, gullashni boshlanishidan to pishish boshlanishigacha bo'lgan davr davomiyligi 134-83-135 kunning tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 1953,9-817-1997,3 °C oralig'ida bo'lganligi aniqlanib, pishish boshlanishidan to barglar to'kilishi tugashigacha bo'lgan davr davomiyligi 107-142-107 kunning tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 779,7-1942,7-729 °C bo'lganligi aniqlanib. Vegetatsiya davomiyligi 257-249-258 kungacha, jami foydali harorat yig'indisi esa 2763-2770,9-2762,7 °C gachani tashkil etganligi aniqlandi.

Kim Grin butasi usulda shakl berilganda, Berton, Leto, Chernosliv Samarkadskiy navlarida vegetatsiya boshlanishidan to gullashni boshlanishigacha bo'lgan davr davomiyligi 14-26-17 kunning tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 26,6-11,2-29 °C oralig'ida bo'lgan bo'lsa, gullashni boshlanishidan to pishish boshlanishigacha bo'lgan davr davomiyligi 133-85-135 kunning tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 1921,8-799,5-1971 °C oralig'ida bo'lganligi aniqlanib. Pishish boshlanishidan to barglar to'kilishi tugashigacha bo'lgan davr davomiyligi 110-147-109 kunning tashkil qilib, foydali harorati yig'indisi 814,2-1960,9-726,6 °C bo'lganligi aniqlanib. Vegetatsiya davomiyligi 257-254-259 kungacha, jami foydali harorat yig'indisi esa 2762,6-2771,6-2762,6 °C gachani tashkil etganligi aniqlandi.

Turli usullarda shakl berilganda issiqlik bilan ta'minlanganlik darajasi hisoblanib, faol harorat ko'rsatkichlari aniqlandi. Nazorat variantga nisbatan vegetatsiya boshlanishidan to gullashni boshlanishida esa 3-10 kungacha yerta boshlanib, foydali harorati yig'indisi esa 3,4-13,7 °C gacha qisqa, gullashni boshlanishidan to pishish boshlanishida esa 2-3 kun erta boshlanib, foydali harorati yig'indisi esa 49,2-56,9 °C gacha yuqori, pishish boshlanishidan to barglar to'kilishi tugashida esa 6-7 kun erta boshlanib, foydali harorati yig'indisi esa 55-68,1 °C gacha yuqori bo'lganligi aniqlanib. Vegetatsiya davomiyligi 1 kun erta tugaganligi hamda, jami foydali harorat yig'indisi 0,8-2,5 °C gacha kam, foydali harorat olganligi bilan ajralib chiqanligi qayd etildi

#### **Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quydagicha xulosalar olindi:**

1. Olxo'ri navlariga turli usullarda shakl berishda, mevasining pishib yetilishida, qulay havo harorati ta'sir ko'rsatadigan bo'lib, olxo'ri daraxtining faol vegetatsiya davrining issiqlik bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi hisoblanadi.

2. Shakl berish usullari orasidan Kim grin butasi (KGB) usuli barcha navlarda mevasining pishib yetilishida, qulay havo harorati ta'sir ko'rsatgan bo'lib, olxo'ri

daraxtining faol vegetatsiya davrining issiqlik bilan rivojlanish ustunligi bilan yaqqol ajralib chiqdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Bo'riev X.Ch. Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi Toshkent 2014 y.
2. Mevachilik asoslari T.E.Ostonaqulov, S.X.Nazieva, B.X.G'ulomov Toshkent 2010 y, 13-20 b.
3. Mirzaev M, Temirov J. Bog'dorchilik va tokzorchilik agrotexnologiyasi. – T.: O'zbekiston, 1977. 31-35 b.
4. Ribakov A.A., Ostrouxova S.A. O'zbekiston mevachiligi. – T.: O'qituvchi, 1981. 300-302 b.
5. Chernovelova V.P. Proizvodetvenno biologicheskaya otsenka sortov slivi, Samarkandskoy oblasti. Avtoreferat dissertatsii za 1974 g, str 12-47
6. Programma i metodika sortoizucheniya plodovix, yagodnix i orexoplodnix kultur/ pod red. Ye. N. Sedova, T.P. Ogolsovoy. – Orel : VNIISPK, 1999.–S 300-350.